

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 03/31.10.2022.Gr.20.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**UZAKBAEV KOBLAN KEUNIMJAY-ULI'**

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AHOLIGA XIZMAT  
KO'RSATISH SOHALARINING HUDUDIIY TARKIBI VA RIVOJLANISH  
XUSUSIYATLARI**

**11.00.02-Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus - 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)**

**Uzakbaev Koblan Keunimjay-uli’**

Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy tarkibi va rivojlanish xususiyatlari..... 3

**Узакбаев Коблан Кеунимжай-улы**

Особенности территориальной организации и развития сферы обслуживания населения в Республике Каракалпакстан..... 21

**Uzakbaev Koblan Keunimjay-uli**

Features of territorial organization and development of the service sector in the Republic of Karakalpakstan..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 03/31.10.2022.Gr.20.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**UZAKBAEV KOBLAN KEUNIMJAY-ULI'**

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AHOLIGA XIZMAT  
KO'RSATISH SOHALARINING HUDUDiy TARKIBI VA RIVOJLANISH  
XUSUSIYATLARI**

**11.00.02-Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/Gr155. raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turdimambetov Izimbet Raxmetovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Komilova Nilufar Karshiboyevna**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Bekbulatova Gulnaz Altinbaevna**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; faks: (99861) 223-60-19; e-mail: [ik.geografiya@mail.com](mailto:ik.geografiya@mail.com)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 240 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (99861) 223-60-19. e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «24» dekabrda tarqatildi.  
(2024-yil «24» dekabr 4-raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.N.Tojiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, g.f.d., professor

**G.A.Xodjaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, g.f.n., dotsent

**P.R.Reymov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, g.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari faoliyatining qamrovi va sifatini oshirish dolzarb muammolardan biriga aylangan. Ushbu masalalarga bevosita bog'liq ravishda, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 3-maqsadi "Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish", 4-maqsadi esa "Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish" bilan bog'liq vazifalarning yechimiga yo'naltirilgan<sup>1</sup>. Tegishli maqsadlarga erishish esa hududlarda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini zamon talabiga mos ravishda rivojlantirishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, savdo, dam olish, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat kabi sohalarning infratuzilmasini modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Jahonda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy tashkil etilishining nazariy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirishga, xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan transport infratuzilmasini o'zaro bog'liq ravishda rivojlantirish yo'llarini asoslashga, raqamli texnologiyalar ta'sirida aholiga xizmat ko'rsatishning yangi shakl va usullari rivojlanib borayotganligini o'rganishga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy geografik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy tashkil etilishining omillarini aniqlashga, servis tarmoqlari joylashuvining aholi va transport infratuzilmasining hududiy tashkil etilishiga bog'liqligini ochib berishga, aholiga xizmat ko'rsatish markazlarining hududiy pog'onasimonligini tadqiq etish va xaritalashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishini takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilib, muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "aholi talablariga va xalqaro standartlariga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish"ga oid muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>2</sup>. Bu borada, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi xususiyatlarini kompleks o'rganishga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonlari, 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son, 2023-yil 25-dekabrda "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-406-son, 2024-yil

<sup>1</sup> <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

9-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-66-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi “2022–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 155-son Qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy joylashuvi, rivojlanish xususiyatlari jahonda turli fan sohalarini vakillari, jumladan, geograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar tomonidan o‘rganilgan. Uzoq xorij mamlakatlaridagi olimlardan aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy joylashuvi muammolarini V.Kristaller, A.Lyosh, D.Bell, J.Singelmann, D.Riddle, P.W.Daniels, J.R.Bryson, W.B.Beyers, S.Illeris, A.Tickell, S.W.Allard, W.Harrington, J.Howells, C.Heflin va K.Miller, J.R.Cuadrado-Roura, Hamed Hussein Ali va Ali Hussein Al-Janabi va boshqa mutaxassislar o‘rgangan.

MDH olimlaridan aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining hududiy tashkil etilishiga oid tadqiqotlar V.V.Pokshishevskiy, S.A.Kovalyov, A.I.Alekseev, A.A.Tkachenko, M.A.Abramov, V.M.Rutgayzer, M.D.Sharigin, L.A.Merkusheva, D.N.Luxmanov, I.V.Nikolskiy, M.V.Solodkova, N.I.Blajko, B.A.Manak, S.M.Guseyn-Zade, V.M.Yurkovskiy, B.B.Rodoman, O.G.Topchiev, O.G.Zavyalova, I.V.Abrosimova va L.V.Menshikova, V.A.Donskoy, G.R.Rostom, D.V.Troshev, A.A.Merkulov, Yu.M.Zelenyuk, K.A.Chernishev, I.Yu.Baranovskiy, Z.B.Susieva, E.A.Razomasova, V.N.Shavrin, Z.A.Trifonova, N.S.Richixina, A.M.Nosonov, S.I.Yakovleva, V.V.Anisimova, R.V.Dmitriyev, M.I.Vorobyov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida o‘rgangan.

Mamlakatimizda aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishi va uni takomillashtirishga oid masalalarni Z.M.Akramov, O.B.Ata-Mirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, Ye.K.Umarov, M.I.Nazarov, X.M.Nazarova, G.A.Bekbulatova, N.Q.Komilova, M.Mamajonov, M.O.Xamroyev, I.R.Turdimambetov, Sh.B.Qurbonov, M.M.Mahmudov, X.X.Jumayev, Q.T.To‘rayev, M.M.Atajonov, A.U.Sattorov, H.A.Oblaqulov, M.O.Oteuliyev kabi iqtisodiy geograflar muayyan darajada ko‘rib chiqqan. Bu borada, ayniqsa, M.I.Nazarov va G.A.Bekbulatovalarning aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining alohida tarmoqlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlari alohida e‘tiborga loyiq. Biroq, nafaqat Qoraqalpog‘istonda, balki O‘zbekistonda ham aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini bir butun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiy geografik omillari, muammo va istiqbollarni kompleks o‘rganishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlar bajarilmagan. Ushbu holat mazkur

dissertatsiya ishining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda yangilik jihatlarini belgilab beradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish markazlarining hududiy-pog'onasimon tizimini aniqlash hamda sohani yanada rivojlantirish va hududiy tashkil etilishini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

aholiga xizmat ko'rsatish sohasining mohiyati, tarmoqlar tarkibi va hududiy tashkil etilishining nazariy-uslubiy jihatlarini o'rganish;

O'zbekiston va xorijiy davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanida aholiga xizmat ko'rsatish sohasi hududiy tashkil etilishining omil, jarayon va muammolarini tadqiq etish tajribalarini tahlil qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida savdo, ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi xususiyatlarini tadqiq etish hamda tegishli sohalar markazlarining hududiy-pog'onasimon darajalarini ajratish;

Qoraqalpog'iston sharoitida shakllangan aholiga xizmat ko'rsatish markazlarining hududiy-pog'onasimon tizimini aniqlash, uni strukturaviy jihatdan tavsiflash va xaritalashtirish;

Qoraqalpog'iston hududidagi aholiga xizmat ko'rsatish asosiy markazlarining ta'sir doirasini aniqlab, respublikada aholiga xizmat ko'rsatishning tumanlararo klasterlarini ajratish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy-hududiy birliklarini aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha reyting baholash;

mintaqada aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yanada rivojlantirish va hududiy tashkil etish tizimlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** Qoraqalpog'iston Respublikasidagi aholiga xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Qoraqalpog'iston Respublikasidagi aholiga xizmat ko'rsatish sohasi markazlarining hududiy pog'onasimon tizimi, uning strukturasi va takomillashtirish choralari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada statistik, ijtimoiy so'rovnoma, kartografik, geografik taqqoslash, hududiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Xaritalar GAT texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasida shakllangan savdo, ta'lim va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish markazlarining hududiy darajalari hamda tegishli tarmoqlarning turli ko'lamdagi hududiy markazlarida rivojlanish xususiyatlari aniqlangan;

respublikada aholiga xizmat ko'rsatish sohasi hududiy tashkil etilishining pog'onasimon (iyerarxik) tuzilishi kompleks iqtisodiy geografik jihatdan asoslangan va xaritalashtirilgan;

mintaqadagi aholiga xizmat ko'rsatish tayanch markazlarining hududiy ta'sir zonasi aniqlangan va shu asosda aholiga xizmat ko'rsatishning tumanlararo klasterlari ajratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy-hududiy birliklari (Nukus shahri va 16 ta qishloq tumani) aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha tarmoqlararo (integral) tarzda reytingi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohasi va uning alohida tarmoqlari hududiy tashkil etilishi aks ettirilgan mavzuli xaritalar tuzilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy-hududiy birliklari aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi jihatidan baholangan;

respublikadagi aholiga xizmat ko'rsatishning turli pog'onadagi markazlarida soha tarmoqlarini rivojlantirishdagi kamchiliklar aniqlanib, tegishli hududiy tizimlarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanganligi, tadqiqot doirasida qo'llanilgan nazariy yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, dissertatsiya ishi zamonaviy tadqiqot usullari, Qoraqalpog'istonning barcha tumanlari va Nukus shahrida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma hamda muallifning hududlardagi kuzatuvlari natijalari asosida bajarilganligi, tadqiqot natijasida olingan xulosa va takliflarning amaliyotda joriy etilganligi, ushbu natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog'iston Respublikasida shakllangan aholiga xizmat ko'rsatish sohasi va uning alohida tarmoqlari markazlarining hududiy pog'onasimon tizimi ajratib olinganligi, tavsiflanganligi va xaritalashtirilganligi, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodlardan boshqa mintaqalarda aholiga xizmat ko'rsatish sohasini ijtimoiy geografik jihatdan kompleks o'rganish maqsadida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natija va xulosalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi va uning ma'muriy-hududiy birliklarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, joylarda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yanada rivojlantirish, soha hududiy markazlarida aholiga xizmat ko'rsatish muassasalari to'rini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasida shakllangan savdo, ta’lim va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish markazlarining hududiy darajalari hamda tegishli tarmoqlarning turli ko‘lamdagi hududiy markazlarida rivojlanish xususiyatlariga oid xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi “2022–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 155-son Qarori ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-avgustdagi RS (0909) 277-son ma’lumotnomasi). Natijada Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq tumanlarida aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini hududiy jihatdan tabaqalashtirishga imkon yaratilgan;

kompleks iqtisodiy geografik jihatdan asoslangan va xaritalashtirilgan respublikada aholiga xizmat ko‘rsatish sohasi hududiy tashkil etilishining pog‘onasimon (iyerarxik) tuzilishiga oid xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi “2022–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 155-son Qarori ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-avgustdagi RS (0909) 277-son ma’lumotnomasi). Natijada Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq tumanlari ma’muriy markazlarining aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy tizimidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashga imkon bergan;

mintaqadagi aholiga xizmat ko‘rsatish tayanch markazlarining hududiy ta’sir zonasi aniqlangan va shu asosda aholiga xizmat ko‘rsatishning tumanlararo klasterlariga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-66-son Qarori ijrosini ta’minlashda qo‘llanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-avgustdagi RS (09-09) 277-son ma’lumotnomasi). Natijada Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Chimboy, Beruniy va To‘rtko‘l tumanlarida tumanlararo ahamiyatga ega bo‘lgan aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan choralarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy-hududiy birliklari (Nukus shahri va 16 ta qishloq tumani) aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha tarmoqlararo (integral) tarzdagi reytingi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-66-son Qarori ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-avgustdagi RS (09-09) 277-son ma’lumotnomasi). Natijada Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq tumanlari va Nukus shahrida yangi tashkil etilishi lozim bo‘lgan aholiga xizmat ko‘rsatish obyektlarining maqsadli parametrlariga aniqlik kiritish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy nufuzli jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasining nazariy-uslubiy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida aholiga xizmat ko'rsatish sohasini ijtimoiy-geografik tadqiq etishning manbalari, uslubiy yondashuv va metodlari, “ijtimoiy soha”, “noishlab chiqarish sohasi”, “xizmat ko'rsatish sohasi” va “ijtimoiy infratuzilma” kabi tushunchalarning mohiyati, xizmat ko'rsatish sohasining tarmoqlar tarkibi (1-rasm), O'zbekiston va xorijiy ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasida aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasini o'rganishning tajribalari, xususan, A.Lyosh, V.Kristaller, A.I.Alekseyev, S.A.Kovalyov, M.A.Abramov, V.M.Rutgayzer va boshqa xorijiy olimlarning hamda A.S.Soliyev, Ye.K.Umarov, M.I.Nazarov, G.A.Bekbulatova, I.R.Turdimambetov, Sh.B.Qurbonov, M.O.Oteuliyev va boshqa o'zbekistonlik olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Birinchi bobdagi tahlil va mulohazalardan aholiga xizmat ko'rsatish sohasi ijtimoiy sohaning tarkibiy qismi sifatida, ijtimoiy infratuzilma va aholiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat turlarini o'z ichiga olishi haqida xulosa chiqarildi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohaslarining rivojlanishi va hududiy tarkibi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohaslarining hududiy tashkil etilishi aholi joylashuv tizimiga chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Tahlillar ko'rsatishcha, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalari hududiy markazlarining ko'p pog'onali (iyerarxik) tarmog'i shakllangan va rivojlanib bormoqda. Mazkur holat tadqiqot jarayonida savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda misolida o'rganildi.



### 1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari

Rasm sohaga oid dissertatsiyalar va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida tuzildi.

Savdo sohasida Qoraqolpog'istonda birinchi darajali (pog'onali) markaz bo'lib, respublika poytaxti, Nukus shahri hisoblanadi, ikkinchi darajali markazlar sifatida esa o'z tumanidan tashqari, qo'shni tumanlar aholisiga xizmat ko'rsatuvchi shaharlar – Xo'jayli, Chimboy, Qo'ng'iro't, Mang'it, To'rtko'l va Beruniy shaharlarini ajratish mumkin. Qolgan tuman markazlari savdo xizmatlarining uchinchi pog'onali hududiy markazlari bo'lib hisoblanadi, ularning ta'sir doirasi, asosan, o'z tumanining hududi bilan chegaralanadi. To'rtinchi pog'onani qishloqlararo miqyosda xizmat ko'rsatadigan nisbatan kattaroq qishloqlar (odatda, OFY markazlari) egallaydi. Eng quyi, beshinchi pog'onada esa kichik va mayda qishloq aholi punktlari turadi. Bu yerda savdo sohasi juda sust rivojlangan bo'lib, faqatgina kundalik ehtiyojlarni qondirishga moslashgan chakana savdo yuritiladi.

Ta'lim sohasida ham o'ziga xos xizmat ko'rsatish markazlarining hududiy pog'onasimon tizimi shakllangan. Bu ierarxiyaning cho'qqisida, albatta, Nukus

shahri turadi. U ta'lim sohasining kompleks tarzda rivojlanayotganligi bilan ajralib turadi. Mintaqa miqyosida (muayyan darajada – Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni miqyosida ham) Nukus oliy ta'lim va ilm-fan sohasining yirik markazi hisoblanadi. Ikkinchi pog'onani tumanlararo ta'lim markazlari tarzida rivojlanib borayotgan shaharlar – Beruniy, Bo'ston, To'rtko'l, Xalqobod, Xo'jayli, Chimboy va Qo'ng'iro't – egallaydi. Bu shaharlar o'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalari, ayrimlari esa oliy ta'lim tashkilotlarining fakultet va bo'limlari joylashganligi bilan ajralib turmoqda. Uchinchi bosqichda qolgan tuman markazlari turadi. Bu aholi manzilgohlarida davlat ixtisoslashgan maktablari, kasb-hunar maktablari, ayrimlarida, kollej va texnikumlar faoliyat ko'rsatib, o'z tumanlari uchun ta'lim sohasidagi mahalliy (lokal) markazlar vazifasini o'taydilar. To'rtinchi pog'onada nisbatan kattaroq qishloq manzilgohlari, asosan, OFY markazlari turadi, ulardagi maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari atrofidagi kichik va mayda qishloqlar aholisiga muayyan darajada xizmat ko'rsatadi. Eng quyi, beshinchi pog'onani esa eng kichik (mayda) ovullar egallagan bo'lib, u erlarda ta'lim muassasalari yoki umuman mavjud emas, yoki faqat o'zining aholisiga xizmat ko'rsatadi.

Sog'liqni saqlash (tibbiyot) sohasi ham mintaqada hududiy markazlarining pog'onasimon tarmog'i ko'rinishida rivojlanib bormoqda. Nukus shahri bunda boshqa ijtimoiy sohalar kabi respublika uchun birinchi darajali hududiy markaz rolini o'ynaydi. Bu yerdagi turli tor ixtisoslashgan zamonaviy tibbiy markazlar hamda ko'plab xususiy tibbiy muassasalar butun Qoraqalpog'iston miqyosida xizmat ko'rsatadi. Ikkinchi pog'onadagi tumanlararo markazlar qatoriga Bo'ston, Chimboy, Qo'ng'iro't va Beruniy shaharlari kiradi. Ular boshqa tuman markazlaridan ayrim tor ixtisoslashgan tibbiy muassasalarning mavjudligi bilan farq qiladi. Uchinchi pog'onani tashkil etadigan qolgan tuman markazlarida markaziy shifoxona hamda tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari faoliyat ko'rsatib, lokal doiradagi tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etish va boshqarish, mahalliy aholiga kundalik ravishda tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi. Eng quyi, to'rtinchi pog'ona sifatida oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar joylashgan OFY markazlari, yirik shaharcha va qishloq aholi punktlarini ajratish lozim. Ko'plab qishloq aholi punktlarida esa tibbiy muassasalari umuman mavjud emas va ularning aholisi birlamchi tibbiy yordam uchun qishloqlararo markazlariga tashrif buyurishadi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog'istonda aholiga xizmat ko'rsatish sohasining hududiy-iyerarxik tashkil etilishi va uni takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududining kattaligi, aholi punktlari orasida masofalarning nisbatan uzoqligi, qishloq tumanlari orasida demografik salohiyatning keskin farqlanishi va boshqa ijtimoiy geografik omillar aholiga xizmat ko'rsatish sohasini hududiy tashkil etilishiga jiddiy tarzda ta'sir ko'rsatilishi o'rganilgan.

Savdo, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi aholiga xizmat ko'rsatish sohasi eng ommaviy tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasida hududiy tashkil etilishining xususiyatlari umumlashtirilgan holda, mintaqadagi aholiga xizmat ko'rsatish hududiy markazlarining iyerarxiyasi aniqlandi (1-jadval).

## 1-jadval

### Qoraqalpog‘iston Respublikasida shakllangan aholiga xizmat ko‘rsatish hududiy markazlarining iyerarxik pog‘onalari haqida umumiy ma‘lumot

Pog‘ona tartib raqami	Pog‘onaning nomi	Mansub aholi punktlari	O‘ziga xos xususiyatlari
1	Mintaqa va mintaqalararo xizmat ko‘rsatish markazi	Nukus shahri	Oliy ta‘lim tashkilotlari, ilmiy tadqiqot muassasalari, akademik litseylar, Prezident maktabi, yirik ko‘p tarmoqli ulgurji va chakana savdo tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiy muassasalar, temir yo‘l vokzali va xalqaro aeroport faoliyat ko‘rsatadi
2	Tumanlararo markazlar	Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot (Oltinko‘l shaharchasi bilan), Chimboy, Beruniy, To‘rtko‘l, Bo‘ston, Xalqobod, Mang‘it shaharlari	Texnikum, kasb-hunar kollejlari, oliy ta‘lim tashkilotlari filiallari va fakultetlari, ixtisoslashgan shifoxonalar, doimiy ishlaydigan bozorlar faoliyat ko‘rsatadi
3	Tuman markazlari	Taxiatosh, Shumanoy, Mo‘ynoq shaharlari, Oqmang‘it, Kegeyli, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Qonliko‘l, Bo‘zatov shaharchalari	Ixtisoslashgan va kasb-hunar maktablari, turli ta‘lim tillarida faoliyat olib boradigan umumta‘lim muassasalari, tuman poliklinika va shifoxonalari, tuman ahamiyatidagi bozorlar, katta do‘konlar, tuman avto shox bekatlari faoliyat ko‘rsatadi
4	Qishloqlararo markazlar	OFY markazlari, nisbatan katta qishloqlar	Oilaviy shifokor punktlari, umumta‘lim va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, do‘konlar, to‘yxonalar, mahalliy ahamiyatidagi maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari faoliyat ko‘rsatadi
5	Xizmat ko‘rsatish markazlari hisoblanmaydigan manzilgohlar	Mayda ovullar	Xizmat ko‘rsatish shahobchalari, ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlari umuman yoki deyarli mavjud emas

Jadval muallif tomonidan bajarilgan tadqiqotlar natijalari asosida shakllantirilgan.

Ta‘kidlash kerakki, Qoraqalpog‘iston sharoitida ijtimoiy va demografik salohiyati kichikroq bo‘lgan tuman, OFY va MFYlar aholisiga xizmat ko‘rsatadigan tumanlararo markazlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu borada Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot (Oltinko‘l shaharchasi bilan), Chimboy, To‘rtko‘l va Beruniy shaharlarining ta‘sir doirasi va hududiy ahamiyati e‘tiborga loyiqdir. Ushbu tumanlararo markazlar muayyan doira (radius, areal) dagi hududlarga xizmat ko‘rsatayotgan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasida buning ta‘sirida **aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy klasterlari** shakllandi. Tadqiqot jarayonida Qoraqalpog‘iston Respublikasining barcha tumanlarida olib borilgan o‘rganishlar, aholi bilan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomalar va suhbatlar

asnosida yuqorida sanab o'tilgan tumanlararo markazlarning aholiga xizmat ko'rsatish markazlari sifatidagi ta'sir areallari (zonalari) aniqlandi. Shuningdek, Nukus shahriga yaqin joylashgan ayrim tuman, OFY va MFY aholisi kundalik ehtiyojlarni qondirish uchun Nukus shahridagi xizmat ko'rsatish obyekt va muassasalaridan foydalanishi ham aniqlab olindi.

Tadqiqotlar natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining quyidagi 5 ta hududiy klasteri ajratib olindi (2-rasm):


- 1) Nukus (markazi – Nukus shahri);
- 2) Xo'jayli (markazi – Xo'jayli shahri);
- 3) Chimboy (markazi – Chimboy shahri);
- 4) Qo'ng'iro't (markazi – Qo'ng'iro't shahri (Oltinko'l shaharchasi bilan birga));
- 5) To'rtko'l-Beruniy (markazlari – To'rtko'l va Beruniy shaharlari).

*Nukus klasteri* Nukus shahri, Nukus va Amudaryo tumanlari to'laligicha, Taxiato'sh tumanining Taxiato'sh shahri, Kegeyli tumanining Xalqobod shahri va Juzimbog' OFY hududlarini qamrab oladi. Bu hududiy klasterning aholisi ta'lim, sog'liqni saqlash va, ayniqsa, savdo yo'nalishidagi xizmatlardan foydalanish maqsadlarida ko'p hollarda bevosita Nukus shahriga borishadi.

*Xo'jayli klasteri* Xo'jayli tumani, Qanliko'l tumanining markazi (Qanliko'l shaharchasi), Qanliko'l, Nauriz, Bo'stan, Janaqala, Qosjap OFYlari, Taxiato'sh tumanining Keneges, Naymanko'l, Sarayko'l OFYlari, Shumanay tumanining ma'muriy markazi – Shumanay shahri hamda Akjap, Mamiy, Begjap va Birlashik kabi OFYlar doirasida shakllangan. Bu klasterni tashkil etadigan hududlar aholisi turli xizmatlardan foydalanish maqsadida, ayniqsa, savdo va ta'lim borasida Xo'jayli shaharga borishadi.

*Chimboy klasteri* Chimboy, Taxtako'pir, Qorao'zak tumanlari to'liq, Kegeyli tumanining asosiy qismi (Juzimbog' OFY va Xalqobod shahridan tashqari), Bo'zatov tumanining asosiy qismi (Aspantay OFYdan tashqari), Mo'ynoq tumanining Qozoqdaryo OFY hududlarini o'z ichiga oladi. Mazkur klasterni tashkil etadigan hududlar aholisi turli xizmatlardan foydalanish maqsadida, ayniqsa, savdo, ta'lim va sog'liqni saqlash borasida Chimboy shahriga borishadi.

*Qo'ng'iro't klasteri* tarkibiga Qo'ng'iro't tumani, Muynoq tumanining asosiy qismi (Qozoqdaryo OFY dan tashqari), Shumanay tumanining Aybuyir, Dehqonobod, Ketenler, Sarmanbayko'l OFYlari, Qanliko'l tumanining Besko'pir, Jayhun, Arzimbetqum OFYlari, Bo'zatov tumanining Aspantay OFY kabi hududlar kiradi. Bu hududiy klasterning markazi Qo'ng'iro't shahri hisoblanib, aholiga xizmat ko'rsatishning hududiy markazi sifatida u o'ziga hududiy jihatdan bevosita tutash (birlashib ketgan desa ham bo'ladi), aholi soni 30 ming kishidan ziyod bo'lgan Oltinko'l shaharchasi bilan birga yagona markaz tarzida ko'rilishi maqsadga muvofiq. Bunda Oltinko'l shaharchasida atrof hududlarga xizmat ko'rsatadigan bozor (chorva mollari), neft-gaz sanoati mutaxassislarini tayyorlaydigan texnikum joylashganligi katta ahamiyatga ega.



**2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy klasterlari xaritasi**

Xarita muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida tuzilgan.

*To'rtko'l-Beruniy klasteri* Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarini birlashtiradi. Bu hududiy klasterning o'ziga xos jihati shundaki, bitta shaharni uchala tuman uchun yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan bitta tumanlararo xizmat ko'rsatish markazi sifatida ajratib bo'lmaydi. Natijada bu hududda Beruniy va To'rtko'l boshqa aholi manzilgohlarga nisbatan yirikroq bo'lganligi, savdo, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida birmuncha kattaroq salohiyatga ega ekanligi tufayli butun hududiy klaster miqyosida aholiga xizmat ko'rsatish markazlari sifatida yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ma'lum daraja va mazmunda *To'rtko'l-Beruniy konurbatsiyasi* deb ajratish mumkin. E'tiborli jihati yana shundaki, bu ikkita shaharga qo'shni Xorazm viloyatidan ham savdo qilish maqsadida aholi qatnaydi, mahalliy aholi esa turli xizmatlardan foydalanish uchun Xorazm viloyati markazi, Urganch shahriga borishadi.

Tadqiqotimiz jarayonida Qoraqalpog'iston hududlarida aholiga xizmat ko'rsatish sohasining holatini baholash ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor savdo va umumiy ovqatlanish, ta'lim va sog'liqni saqlashga qaratilganligi bois, baholash mezonlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar olindi: 1) aholi jon boshiga pullik xizmatlar hajmi, ming so'mda; 2) aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi, ming so'mda; 3) savdo korxonalarini soni, har 1000 aholiga nisbatan; 4) umumiy ovqatlanish korxonalarini, har 1000 aholiga nisbatan; 5) 3-6 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi, % da; 6) bir navbatli umumta'lim maktablarning jami umumta'lim maktablari tarkibidagi ulushi, % da; 7) umumta'lim muassasalarining o'rtacha sig'im koeffitsiyenti; 8) umumta'lim muassasalaridagi jami o'qituvchilar sonida oliy va birinchi toifali o'qituvchilarning ulushi, % da; 9) professional ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning soni, har 10 000 aholiga nisbatan; 10) shifoxona o'rinlari soni, har 10 000 aholiga nisbatan; 11) ambulator-poliklinika muassasalarini quvvati, har 10 000 aholiga nisbatan; 12) shifokorlar bilan ta'minlanganligi, har 10 000 aholiga nisbatan; 13) o'rta tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi, har 10 000 aholiga nisbatan.

Eng yuqori reyting o'rin Nukus shahriga tegishli. Nukus shahridan tashqari, birinchi beshtalikka Qo'ng'iro't (2-o'rin), Nukus (2-o'rin), Qonli'ko'l (3-o'rin), Mo'ynoq (4-o'rin) va Xo'jayli (5-o'rin) tumanlari kirgan. Ayni vaqtda, Beruniy tumani 12-, Taxi'atosh 13-, To'rtko'l 14-, Ellikqal'a 15-, Amudaryo tumani 16-o'rinni egallaydi. Qizig'i shundaki, janubiy tumanlar aholi soni va zichligi, aholi joylashuv tizimi va xizmat ko'rsatish markazlari tarmog'ining rivojlanish darajasi, ijtimoiy sohasining mutlaq ko'rsatkichlari bilan respublika shimoliy tumanlariga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega, lekin ko'p ko'rsatkichlar aholi soniga nisbatan olinganda, ularning holati shimoliy tumanlarga nisbatan past ekanligi ko'rinadi.

